



The Unification of Craftsmen into Artels in the Fergana Valley in 1920–1924: The Process of Nationalization Policy

Zukhra OLIMJANOVA¹

Andijan State University

ARTICLE INFO

Article history:

Received January 2025

Received in revised form

15 January 2025

Accepted 25 February 2025

Available online

25 March 2025

Keywords:

small and medium enterprises,
private property,
industrial enterprises,
the Council of People's
Commissars of the RSFSR,
the New Economic Policy
(NEP), central and local
economic bodies,
private entrepreneurship,
artels.

ABSTRACT

The article presents a comprehensive analysis of the organization of craft cooperatives in the Fergana Valley during the period from 1920 to 1924. It examines the peculiarities of their formation and development, as well as their role in the socio-economic progress of the region.

2181-1415/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol6-iss2/S-pp62-67>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

1920–1924-yillarda Farg'ona vodiysida kosib-hunarmandlarning artellarga birlashishi: milliy lashtirish siyosati jarayoni

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

o'rta va kichik korxonalar,
xususiy mulk,
sanoat korxonasi,
RSFSR Xalq Komissarlari
Soveti,
Yangi iqtisodiy siyosat
(NEP),

Mazkur maqolada 1920–1924-yillarda Farg'ona vodiysidagi kosib-hunarmandlar artellarining tashkil etilishi, ularning rivojlanishi va ushbu jarayonning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati tahlil qilinadi.

¹ PhD Student, Andijan State University.

markaziy va mahalliy
xo'jalik organlari,
xususiy tadbirkorlik,
artellar.

Объединение ремесленников в артели в Ферганской долине в 1920–1924 гг.: процесс политики национализации

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

средние и мелкие предприятия, частная собственность, промышленные предприятия, Совет Народных Комиссаров РСФСР, новая экономическая политика (НЭП), центральные и местные хозяйственные органы, частное предпринимательство, артели.

В статье проведён всесторонний анализ организации ремесленных артелей Ферганской долины в период с 1920 по 1924 гг. Рассмотрены особенности их формирования и развития, а также роль в социально-экономическом развитии региона.

1917-yilda sovet hokimiyati o'rnatilganidan keyin Turkistonda sanoatni davlat tasarrufiga o'tkazish jarayoni boshlandi. Dastlab yirik korxonalar natsionalizatsiya qilingan bo'lsa, 1918-yil o'rtalaridan boshlab o'rta va kichik korxonalar ham davlat nazoratiga o'tkazila boshlandi.

1920-yil oxiriga kelib, sovet hukumati, mahalliy sovetlar va Turkiston respublikasi xo'jalik kengashlari tomonidan olib borilgan milliyashtirish siyosati natijasida respublikaning deyarli barcha sanoat korxonalari davlat mulkiga aylantirildi. Bu korxonalar markaziy va mahalliy xo'jalik organlari orqali boshqarila boshlandi.

1920-yillar boshlarida sovet davlati milliyashtirish siyosati doirasida xususiy mulk va erkin tadbirkorlikni bartaraf etishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirdi. Bu jarayon qishloq xo'jaligi, sanoat, moliya va savdo sohalaridagi o'zgarishlar bilan bir qatorda kosibchilik va hunarmandchilik sohasini ham qamrab oldi. Xususan, Farg'ona vodiysida hunarmandlarning va kosiblarning artellarga birlashishi ishlab chiqarish jarayonlarini markazlashtirish va davlat nazoratiga o'tkazish siyosatining muhim qismiga aylandi.

1921-yil 1-yanvarga kelib, Turkistonda 1175 ta sanoat korxonasi milliyashtirildi, lekin ularning ko'pchiligi kichik korxonalar edi. Shuningdek, milliyashtirilgan korxonalar asosan davlat buyurtmalarini bajarish uchun ishlatilgan. Masalan, terini qayta ishlash korxonalari armiya ehtiyojlari uchun ishlab chiqarishga yo'naltirildi. 1919-yildan boshlab Turkiston Respublikasidagi jun titish, teri-ko'n, to'qimachilik, vinochilik va tamaki sanoati korxonalari ham natsionalizatsiya qilindi hamda ular ham faqat armiya ehtiyojlari uchun ishlay boshladi.

RSFSR Xalq Komissarlari Sovetining 1918-yil 28-iyundagi yirik sanoat va transportni umummilliyashtirish to'g'risidagi dekretidan so'ng, Turkistonda sanoat korxonalarini milliyashtirish jarayoni yanada kuchaydi. Bu jarayon Andijonda ham

davom ettirildi. 1920-yil oxiriga kelib, bu yerda barcha korxonalar va elektr stansiyalar milliy lashtirildi. Andijonning butun sanoati front ehtiyojlarini ta'minlashga qaratildi. Shahar tegirmonlari armiyani un bilan ta'minlashga, to'quvchilik va tikuvchilik ustaxonalari jangchilar uchun poyabzal tayyorlab bera boshladi. Faqatgina 1919-yilda Andijon sanoati frontga 5 ming juft erkaklar ichki kiyimi, 3 ming juft yozgi gimnastyorka va shim, 1500 ta furajka, 700 ta mo'ynali jun kurtka, 500 ta papaxa, 100 ta jun gimnastyorka, 500 ta jun shim, 2100 juft etik va boshqa mahsulotlarni yetkazib berdi. Andijon yog' zavodi qoshidagi ustaxonalarda turli xil jangovar qurollar ta'mirlandi.

Biroq milliy lashtirish jarayoni iqtisodiy muammolarni ham keltirib chiqardi. Ishlab chiqarish hajmi keskin kamaydi, chunki hunarmandchilik asosida faoliyat yuritgan kichik korxonalar markazlashgan boshqaruv tizimiga to'liq moslasha olmadi. Shuningdek, mutaxassislar tanqisligi, xomashyo yetishmovchiligi va transport tizimining izdan chiqishi ham sanoatni rivojlantirishga to'sqinlik qildi.

Shunday qilib, 1917–1921-yillarda Turkistonda sanoatni milliy lashtirish keng ko'lamda amalga oshirilgan bo'lsa-da, bu jarayon turli iqtisodiy va ijtimoiy muammolar bilan kechgan. Keyinchalik Yangi iqtisodiy siyosat (NEP) davrida milliy lashtirilgan korxonalarining bir qismi xususiy tadbirkorlarga ijaraga berildi va iqtisodiy faoliyatni tiklashga harakat qilindi.

1920-yil oxiriga kelib, sovet hukumati, mahalliy sovetlar va Turkiston respublikasi xo'jalik kengashlari tomonidan amalga oshirilgan sanoatni natsionalizatsiya qilish natijasida, respublikaning aksariyat sanoat korxonalari davlat tasarrufiga o'tkazildi. Bu korxonalar markaziy va mahalliy xo'jalik organlari orqali boshqarila boshlandi. 1921-yil 1-yanvarga kelib, Turkistonda 1175 ta sanoat korxonasi davlat mulkiga aylantirildi, bularning ko'pchiligi kichik korxonalar edi. [2, c.138] Davlat korxonalari barcha yollanma ishchilarning 90 foizini va respublika sanoatidagi barcha mexanik dvigatellarning 80 foizdan ortig'ini o'z ichiga olardi. O'lka yalpi sanoat mahsulotining qariyb to'rt dan uch qismi davlat sektori hissasiga to'g'ri keldi. [3, c.80] Xususiy va kooperativ mulkda faqat kichik korxonalariga qoldi, xolos. Bu korxonalarda o'rtacha to'rt nafardan ortiq yollanma ishchi bo'lmagan yoki ularda umuman yollanma mehnatdan foydalanilmagan. [4, c. 264]

Sovet davlatining milliy lashtirish siyosati xususiy mulkni yo'q qilib, barcha ishlab chiqarish vositalarini davlat qo'lga o'tkazishni o'z oldiga maqsad qilgan edi. Bu siyosat qishloq xo'jaligi, sanoat, moliya-bank tizimi va savdo sohalarida amalga oshirildi. Uning natijasida ishlab chiqarishning barcha shakllari ustidan davlat monopoliyasi o'rnatildi, bu esa iqtisodiyotning markazlashgan boshqaruvini ta'minladi. Xususiy tadbirkorlikning yo'q qilinishidan kelib chiqqan holda, bozor munosabatlari o'rnini markazlashtirilgan rejali iqtisodiyot egalladi.

Bu jarayon, ayniqsa, sanoat va bank sektorlarida qattiq keskinlik bilan o'tkazildi. Korxonalar, fabrikalar, yerlar va moliyaviy institutlar davlat tasarrufiga o'tkazildi. Natijada, iqtisodiyotning barcha tarmoqlari davlat nazoratiga o'tdi va shaxsiy mulkdorlar, ishbilarmonlar o'z mulklaridan mahrum bo'ldi.

Sovet davlatining milliy lashtirish siyosati jamiyatning barcha iqtisodiy resurslarini davlat qo'lida to'plashga qaratilgan edi. Bu, birinchi navbatda, xususiy mulkni yo'q qilish va iqtisodiyotni markazlashtirilgan rejali boshqaruvga o'tkazish orqali amalga oshirildi.

Qishloq xo'jaligida, yerlar va xo'jalik vositalari xususiy mulkdan tortib olinib, davlat tasarrufiga o'tkazildi. Yer milliy mulk sifatida e'lon qilindi va unda ishlash davlat tomonidan tashkil etilgan kolxozlar va sovxozlar orqali yo'lga qo'yildi. Bu aholi o'rtasida iqtisodiy erkinlikning yo'qolishiga, qishloq xo'jaligining markazlashuviga va tadbirkorlikning cheklanishiga olib keldi.

Sanoat sohasida, katta va o'rta korxonalar davlat nazoratiga o'tkazildi. Hatto kichik ishlab chiqarish ustaxonalari ham yo'q qilindi yoki davlatga qaram bo'ldi. Barcha sanoat korxonalari milliy lashtirilib, ishlab chiqarish jarayonini rejalashtirish markazlashtirilgan tarzda olib borildi. Natijada sanoatda xususiy mulkdorlik umuman barham topdi.

Moliya-bank tizimida, barcha xususiy banklar, kredit muassasalari va moliyaviy institutlar davlat mulkiga aylantirildi. Sovet Ittifoqi davlat banki yagona moliyaviy institut sifatida tashkil etildi, va barcha moliyaviy operatsiyalar faqat uning nazoratida bo'lib o'tdi. Hatto shaxsiy moliyaviy amaliyotlar ham keskin cheklandi.

Savdo sohasida, xususiy savdo va xususiy tijorat faoliyati taqiqlandi. Bozorlar va do'konlar davlat tasarrufiga o'tkazilib, tovarlar taqsimoti va savdosi markazlashtirilgan davlat rejalariga muvofiq amalga oshirildi. Bu aholining iste'mol ehtiyojlarini cheklashga va tovar taqchilligining yuzaga kelishiga olib keldi.

Mazkur siyosat iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida davlatning mutlaq ustunligini o'rnatdi, lekin bu ko'plab ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni keltirib chiqardi, jumladan, ishlab chiqarish samaradorligining pasayishi, rag'batlantirish tizimining yo'qolishi va tovar yetishmovchiligi kabi muammolar.

Sovet davlatining qishloq xo'jaligi, sanoat ishlab chiqarishi, moliya-bank tizimi va savdo sohasidagi natsionalizatsiya siyosati mohiyatan xususiy mulkni yo'q qilishga, ishlab chiqarishning barcha ko'rinishlari ustidan davlat monopoliyasini o'rnatishga qaratilgan edi. Bu siyosat pirovardida respublikada iqtisodiy ahvolning keskin yomonlashishiga olib keldi. Bu xato siyosat natijasida Turkistondagi sanoat korxonalarining yarmidan ko'pi o'z faoliyatini to'xtatdi. 1920-yilda respublikada sanoat ishlab chiqarish hajmi 1914-yilga nisbatan 80 foizga qisqardi.

Yirik, o'rta va hatto mayda fabrika-zavod tipidagi korxonalarni natsionalizatsiya qilish bilan bir vaqtda bolsheviklar rejimi ko'pgina hunarmandchilik ustaxonalarini ham o'z nazoratiga oldi. Hunarmandchilik ustaxonalari asosan ma'muriy usullar bilan birlashtirilib, hunarmandchilik artellari tashkil qilindi. To'liq bo'lmagan ma'lumotlarga qaraganda, 1920-yil dekabriga kelib, Turkistonda qariyb 800 ta hunarmandchilik artellari (shu jumladan, 10 tasi – xotin-qizlar ishlaydigan artel) bor edi, ularga 25 mingdan ortiq hunarmand birlashgan edi. Hunarmandchilik artellari mustaqil faoliyat ko'rsatishdan butunlay mahrum etilgan bo'lib, turli davlat va harbiy tashkilotlarning buyurtmalarini bajarar edilar. Bolsheviklar tuzumi organlarining xalq xo'jaligida muhim ahamiyatga ega bo'lgan hunarmandchilik tarmoqdari ustidan qat'iy nazorat o'rnatishi bilan Turkistonda moddiy ishlab chiqarishning keng tarqalgan bu sohasida xususiy mulkchilikni tugatish borasidagi vazifasi butunlay hal etildi va shu asosda bolsheviklarning shturmchilik, harbiy-ma'muriy usullar bilan "mustabid sotsializm tuzumi"ni qurish yuzasidan o'z oldiga qo'ygan vazifasini hal qilishda katta qadam tashlandi.

1920-yilda Farg'ona viloyatidagi ko'plab kosib-hunarmandlar o'z faoliyatlarini markazlashtirish va davlat siyosatiga muvofiqlashtirish maqsadida artellarga birlashdilar. Bu jarayon milliy lashtirish va iqtisodiy tarmoqlarni davlat nazoratiga o'tkazish siyosatining bir qismi edi.

1920-yilga kelib, Farg'onada 180 ta artel tashkil etilgan bo'lib, ularda 3922 nafar a'zo mehnat qilgan. Artellar hunarmandchilikning turli yo'nalishlarida, jumladan, tikuvchilik, to'qimachilik, poyabzal ishlab chiqarish va boshqa sohalarda ish olib borgan.

Bu jarayon keyingi yillarda yanada keng quloch yoydi. 1924-yilga kelib, Farg'onadagi artellar soni 6933 taga yetdi, ularda jami 26 453 kishi mehnat qilgan. [5, b. 46-47] Bu artellar faqat iqtisodiy faoliyat markazlari bo'lib qolmasdan, ishchilarning o'zaro hamkorligini ta'minlovchi ijtimoiy tizimga ham aylandi.

Bu jarayonning ijobiy jihatlari sifatida kosibchilik va hunarmandchilikni rivojlantirish, ish o'rinlari yaratish va ishlab chiqarishni rejali tarzda tashkil etishni ko'rsatish mumkin. Ammo, bu davlat siyosati doirasida amalga oshirilgani sababli, ko'p hollarda kosiblar va hunarmandlar o'z-o'zidan erkin faoliyat olib borish imkoniyatidan mahrum bo'lgan.

1920-yilda Farg'ona vodiysida kosibchilik va hunarmandchilik sohasidagi faoliyatni davlat nazoratiga moslashtirish jarayonida artellar muhim rol o'ynagan. Kosiblar va hunarmandlardan tashkil topgan bu artellar, avvalo, iqtisodiy markazlashuv siyosatini amalga oshirishning bir usuli sifatida tashkil etilgan bo'lsa-da, ular ishlab chiqarishda muayyan tartib va tashkilotchilikni ta'minlashda ham ahamiyatli bo'lgan.

1920-yilda Farg'onadagi 180 ta artel hunarmandchilikning an'anaviy tarmoqlari, jumladan, tikuvchilik, to'qimachilik, teri ishlab chiqarish, zargarlik va boshqa sohalarda faoliyat yuritgan. Bularda ishlab chiqarish jarayonlari hamkorlik asosida tashkil etilgan bo'lib, har bir hunarmand o'z mahoratini umumiy ishga qo'shgan. Bunda asosiy maqsad mahsulot hajmini oshirish va bozor ehtiyojlarini qondirish bo'lgan.

1924-yilga kelib, artellarning soni 6933 taga yetdi va bu artellarda 26 453 kishi mehnat qilgani ularning faoliyati keng quloch yoyganidan dalolat beradi. Bu jarayonda hunarmandlar faqat ishchi kuchi emas, balki ishlab chiqarishning asosiy uyushgan ishtirokchilari sifatida namoyon bo'ldilar. Har bir artel qo'shma harakat va taqsimot asosida faoliyat ko'rsatgan bo'lib, ishchilar o'z mehnatlarining natijasini umumiy tarzda taqsimlashgan.

Shu bilan birga, bu jarayon davlatning xususiy mulkchilikni bosqichma-bosqich bartaraf etishga qaratilgan milliy lashtirish siyosati doirasida amalga oshirildi. Hunarmandlar va kosiblar o'z mustaqil faoliyatini yo'qotgan bo'lsa-da, davlat boshchiligida ishlab chiqarish markazlashgan va tartibli bo'lishi ta'minlandi. Biroq, buning oqibatida shaxsiy tashabbuslar kamayib, ijtimoiy va iqtisodiy faoliyat davlat rejalariga to'liq bog'langan holatga kelgan.

Harbiy maqsadlar uchun ishlab chiqarish bilan bir qatorda ma'lum darajada xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish ham yo'lga qo'yildi. Bu vazifani hal etishda hunarmandlar muhim rol o'ynadi. Ularning urush holati va xom ashyo taqchilligi sharoitida o'lka xo'jalik hayotiga qo'shgan hissasi izchil ravishda ortib bordi. Sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida hunarmandchilik-kosibchilik sanoatining ulushi 1913-yildagi 22,3 foizdan 1920-yilda 30-35 foizgacha ko'tarildi. [6, c. 265] Tovar taqchilligi sharoitida eng tanqis bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqaradigan hunarmandchilik tarmoqlari, xususan to'qimachilik, ko'nchilik, poyabzal, tikuvchilik va boshqalar ayniqsa tez va keng rivojlandi. Masalan, Farg'ona va Sirdaryo viloyatlaridagi hunarmandchilik-to'qimachilik korxonalarida ishlovchilar soni 1913-yildagi 1100 nafar kishidan 1920-yilda 2280 nafarga, ya'ni 2 barobardan ziyodga oshdi. [7, c. 68-69]

Farg'ona viloyatida 1920-1924-yillarda kosib-hunarmandlarning artellarga birlashishi davlat siyosati doirasida iqtisodiy markazlashuv va milliy lashtirish jarayonining muhim qismi bo'ldi. Bu orqali ishlab chiqarish hajmini oshirish, tartibli mehnat faoliyatini yo'lga qo'yish va davlatning iqtisodiy nazoratini kuchaytirish maqsad qilingan.

Artellarning tezkor ravishda ko'payishi (1920-yilda 180 ta, 1924-yilda esa 6933 ta) va ularda mehnat qiluvchilar sonining sezilarli oshishi (26 453 kishi) aholi mehnatini tashkil etishdagi samaradorlikni ko'rsatadi. Biroq bu jarayon shaxsiy tashabbus va erkin hunarmandchilik faoliyatining yo'qolishi, davlat rejali iqtisodiyotiga moslashuv zaruriyati va iqtisodiy erkinlikning cheklanishi kabi oqibatlarni ham olib keldi.

Shunday qilib, artellar milliylashtirish siyosati sharoitida hunarmandchilik va kosibchilikni rivojlantirishda muhim rol o'ynagan bo'lsa-da, ular asosan davlat monopoliyasi va rejali iqtisodiyot talablariga moslashgan ijtimoiy-iqtisodiy institutlar sifatida namoyon bo'ldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ульмасов А.У. Национализация промышленности в Советском Туркестане.
2. Отчет о деятельности Совета Народных Комиссаров и Экономического Совета Туркестанской республики на I октября 1922 г. – Т.. 1922. С. 138.
3. История народного хозяйства Узбекистана. Том 1. Ред. колл.: О.Б. Джамалов (Отв. ред) и др. – Ташкент: Изд-во Академии наук УзССР, 1962. – С. 80.
4. Туркестан в начале XX века: к истории истоков национальной независимости. Коллектив авт.: Р.М. Абдуллаев, С.С. Агзамходжаев, И.А. Алимов и др. – Ташкент: Шарк, 2000. – С. 264.
5. Farg'ona oblasti. (Tarixiy-iqtisodiy spravochnik). – Toshkent: O'zbekiston, 1974. – В. 46-47.
6. Туркестан в начале XX века: к истории истоков национальной независимости. Коллектив авт.: Р.М. Абдуллаев, С.С. Агзамходжаев, И.А. Алимов и др. – Ташкент: Шарк, 2000. – С. 265.
7. История народного хозяйства Узбекистана. Том 1. Ред. колл.: О.Б. Джамалов (Отв. ред) и др. – Ташкент: Изд-во Академии наук УзССР, 1962. – С. 68-69.
8. Safarov, T. "Farg'ona vodiysida iqtisodiy va ijtimoiy hayot (1917-1925)." Toshkent: Mehnat, 1984. – S.50-55.
9. Hasanov, M. H. "1920-yillarda O'zbekistonda ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlar." Toshkent: Fan, 1990. – S. 100.